



SHAXS MA'NAVIYATINI IFODALOVCHI LISONIY BIRLIKLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti

Rajabova Nargiza

Anotatsiya

Ushbu maqolada shaxs ma'naviyatini ifodalovchi lisoniy birliklarning o'zbek xalq maqollarida qo'llanish o'rni va usullari, bundan tashqari ma'naviyat ifodalovchi birliklarga ishora qiluvchi maqolar tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: paremiologik birliklar, olamning lisoniy manzarasida ma'naviyat ifodalovchi maqollar, xulq-atvor konsepti.

Аннотация

В данной статье проанализированы место и способы употребления лингвистических единиц, выражающих духовность личности в узбекских народных пословицах, а также статьи, относящиеся к единицам, выражающим духовность.

Ключевые слова: паремиологические единицы, пословицы, выражающие духовность в языковой картине мира, концепт поведения.

Annotation

In this article, the place and methods of using linguistic units expressing the spirituality of the individual in Uzbek folk proverbs, as well as articles referring to units expressing spirituality, were analyzed.

Keywords: paremiological units, proverbs expressing spirituality in the linguistic landscape of the world, the concept of behavior.

Olamning lisoniy manzarasida maqollar va ularning o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Dastlab adabiyotshunoslikning muhim obyekti bo'lgan bu birlikni qomusiy olimlarimizdan Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'ati turk" asarida ilk amaliy va nazariy tahlillarini keltirib o'tgan.



Adabiyotshunos olim S. Boysunovning “Adabiyotshunoslikda maqollarning o‘rganilish tarixi” maqolasida, professor Q. Sodiqovning maqollar haqidagi quyidagi fikrlarini keltirib o‘tgan: “Yozma adabiy til, matn tuzish an‘anasi endigina yuzaga kelayotgan bir chog‘da xalq og‘zaki ijodi va uning uslubi allaqachon shakllanib, yuksalish bosqichiga o‘tgan edi. Badiiy uslub o‘zining og‘zaki bosqichidayoq pishib yetilgan. Yozma badiiy uslub o‘z qolipini, bichimini og‘zaki adabiyotdan oladi. Og‘zaki ko‘rinishda asrlar osha takomillashib kelgan badiiy uslub yozma adabiyotga ko‘chib, o‘z yo‘lini yangi bir shaklda davom ettiradi.”

Demak, maqollar dastlab og‘zaki ijodda so‘ngra yozma adabiyotda vujudga kelganini har ikkala olim ham asoslab berganlar.

O‘zbek tilshunosligimizda ham o‘tgan asrning 50 yillarida o‘rganila boshlandi. Bir qator tilshunos olimlarimiz, jumladan, Y.Pisixanov, A.Shomaqsudov, M.Husainov kabi olimlarimiz olib borgan ilmiy tadqiqotlarida dastlabki tamal toshlarini qo‘yishgan. Shu bilan birga tilshunoslarimizdan Bibish Jo‘rayevaning ham ushbu sohada amalga oshirgan ishlar diqqatga sazovor sanaladi. Olimaning “O‘zbek xalq paremlarining sinonimik lug‘ati” nomli monografiyasi ayniqsa ahamiyatlidir.

Olimaning ta’kidlashicha: “Maqollar timsollarvositasida ish ko‘rar ekan, jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bog‘liq holda ularning timsollari tizmasi - shakli o‘zgarib turadi:

Bir qinga ikki qilich sig‘magay (“Yulduzli tunlar“, 270-b).”¹

Paremiologik birliklar haqida gap ketganda olima maqol va matallarning o‘zaro farqlari haqida ham alohida to‘xtalib o‘tadi: “Maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning idiomalashgan ko‘chma ma’noga ega ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega bo‘lmay, faqatgina to‘g‘ri ma’noda qo‘llanishida

¹B. Jo‘rayeva. O‘zbek xalq paremlarining sinonimik lug‘ati. Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023. B 6



ko‘riladi. Rost, maqol va matal orasida Xitoy devori o‘rnatmoq mumkin emas, bunday qilib bo‘lmaydi”². Ya’niy, qachonlardir matal sanalgan birliklar vaqtlar o‘tishi va ma’lum bir o‘zgarishlar sabab maqolga aylanishi mumkin ekanligi asosli dalillangan.

Hozirda tilshunosligimizning yangi rivojlanib kelayotgan sohalari qatorida turuvchi lingvokulturologiya fanida xalq donoligi mahsuli bo‘lgan maqollar ularning ma’naviy-madaniy tuzulishi alohida ahamiyatga ega sanaladi. Sababi til va madaniyat kesishish nuqtasida maqol va matallar vujudga kelgan. Paremoilogik birliklar shu bilan birga maqollar lingvo kulturologik aspektda tadqiq etish mobaynida bir qanch usullardan foydalaniladi: Maqollardagi har bir leksik birlik semantik jihatdan tahlil qilinib, ularning madanyat bilan mazmunan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Yana bir ususli, har xil tillardagi maqollarning qiyoslab o‘rganish orqali bu tillardagi madaniy va ma’naviy umumiylik va farqli jihatlari tadqiq qilinadi.

Maqollar o‘zida xalqning milliy mafkurasi, urf-odatlarini aks ettirish bilan birgalikda aniq shaxsga nisbatan qo‘llanilishi sababli shu shaxsning manaviyati, xulq-atvorini ham ko‘rsatib beradi.

Ablah do‘st dushmandan yomon,

Ne hiyla bilsa, ishlatar oson³

Ming yillar osha xalqimiz madaniy qadriyatlarida hamda inson shaxsiyati uchun chin do‘st, do‘stga sadoqat asrlarosh eng qadrli va ahamiyatli tushunchalardan sanalib keladi. Ammo do‘stning vafosizi, ikkiyuzlamachisi xatto dushman qilgan yomonliklar oldida hech narsa emasigini yuqoridagi maqol orqali tushunib yetishimiz mumkin.

² B. Jo‘rayeva. O‘zbek xalq paremalarining sinonimik lug‘ati. Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023. B8

³ O‘zbek xalq maqollari. Toshkent.: “Sharq”, 2005. B 94



Shaxsning xulq-atvor konseptini ko'rsatib beruvchi maqollar tilimizda yana bir qancha ko'rinishlarda ifodalanadi. Ayrimlarida yuqorida keltirib o'tganimizdek inson xulq-atvori masalasi, ya'niy odob, axloq, yaxshilik, yomonlik, sadoqat, vafo, to'g'ri so'zlik kabilar to'g'ridan-to'g'ri keltirib o'tiladi. Ba'zilarida esa shaxs ma'naviyatini ifodalovchi birliklar ishtirok etmasa-da, ayni shaxsning qaysidir xislatiga ishora qilingan ekanligi bilinib turadi.

Do'st boshga boqar, dushman – oyoqqa. Yoki “Do'stni do'stidan tani” kabi maqollar yuqoridagi fikrimizga misol bo'la oladi. “Hikmatnoma”da keltirilishicha, “bosh kiyim oyoq kiyimga nisabat tez almashtirib turiladi, sababi oyoq kiyim qimmatroq turadi. Shuning uchun inson oyqo kiyimini tez-tez almashtirlomaydi. Bundan tashqari bosh kiyimga nisbatan oyoq kiyim tezroq eskiradi, tezroq ishdan chiqadi. Bu esa kishi ko'ziga xunuk ko'rinadi. Haqiqiy do'st sening kamchiligningni ko'rsatmaslikka, berkitishga harakat qiladi, qalbaki do'st (dushman) yutug'ingdan ko'ra kamchiligningga ko'proq ahamiyat beradi.”⁴

Do'stning yaxshi-yomonligi, sadoqat-vafosi, to'g'ri so'zligi yoki egriligi kabi axloqiy xislatlar ochiq keltirib o'tilmagan bo'lsada, maqollarning tag zamirida bir qancha ishoralar ko'rinib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs ma'naviyatini ifodalash faqatgina inson xulq-atvori, hislatlarini ko'rsatib turuvchi leksik birliklar ishtirok etgan maqolardagina ko'rsatib berilmay, balki shu axloqiy xislatlarga ishora qiluvchi maqollarda ham o'z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Jo'rayeva. O'zbek xalq paremalarining sinonimik lug'ati. Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2023.

⁴Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma (o'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati). Toshkent. 1990. B 98



2. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent.: “Sharq”, 2005. 512 b
3. Sh. Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma (o‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati). Toshkent. 1990. 527 b
4. Sh. Usmonova. Lingvokulturologiya. Toshkent. 2019. 248 b
5. МАЪНАВИЯТ АСОСИЙ ТУШУНЧАЛАР ИЗОҚЯИ ЛУҒАТИ.
Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент—2010.: В.333